

DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA O'QUVCHILARNING MUSIQIY VA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ergashev Omonboy Turgunbayevich

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

e-mail: omonboy.ergashev@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda musiqa va san'at maktablarining o'рни va o'quvchilarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositalari hamda o'quvchilarni musiqa va san'at ta'limi jarayoniga jalb qilish, ijodiy qobiliyatlari rivojlanish istiqbollari aniqlash imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, ijodiy qobiliyat, san'at, badiiy va ijodiy jarayon, estetik tarbiya, musiqiy ta'lim-tarbiya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ И ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ВО ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Эргашев Омонбой Тургунбаевич

*преподаватель Наманганского государственного
педагогического института*

e-mail: omonboy.ergashev@mail.ru

Аннотация. В статье освещается роль музыкальных и художественных школ во формировании музыкальных и творческих способностей учащихся во внеурочных занятиях, а также средства развития их музыкальных и творческих способностей. Кроме того, рассматриваются возможности более точного определения путей привлечения учащихся к процессу музыкального и художественного образования и перспектив развития их творческих способностей.

Ключевые слова: музыка, творческие способности, искусство, художественно-творческий процесс, эстетическое воспитание, музыкальное образование и воспитание.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING STUDENTS' MUSICAL AND CREATIVE ABILITIES IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Ergashev Omonboy Turgunbayevich

Lecturer at Namangan State Pedagogical Institute

e-mail: omonboy.ergashev@mail.ru

Abstract. *The article highlights the role of music and art schools in developing students' musical and creative abilities through extracurricular activities. It also examines the tools and methods used to enhance students' musical and creative skills, as well as the opportunities for more effectively engaging learners in the process of music and art education and for clearly identifying the prospects for the development of their creative potential.*

Key words: *music, creative abilities, art, artistic and creative process, aesthetic education, music education and upbringing.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri barkamol, estetik didi yuksak, ijodkor shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu jarayonda musiqa san'ati va u bilan bog'liq ta'lim-tarbiyaviy faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish va mustahkamlash uchun qulay pedagogik muhitni yaratadi.

Shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida san'atning roliga yetarlicha baho bermaslik, ota-onalarning musiqa va san'at ta'limiga qiziqishlari pastligi natijasida musiqa va san'at maktablarida bolalar sonining kamayishiga sabab bo'ldi. Yangi ta'lim strategiyasiga muvofiq, eng muhimlaridan biri shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratish vazifasi sifatida, o'quvchilarning musiqiy va ijodiy rivojlanishiga munosabat o'zgardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Sharq taronalari" o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqilarida – "Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi. Shu ma'noda, musiqa – hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz" [1] deb ta'kidlaganlari musiqaning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekanligini tushunimiz mumkin. Shuning uchun biz bolalar va o'smirlarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'z navbatida

musiqiy va ijodiy rivojlanishga yordam beradigan ta'lim jarayonining turli shakllari, shu jumladan qo'shimcha ta'lim tizimi haqida gapirishni zarur deb hisoblaymiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik fanlarida keng tadqiq etilgan. Xususan, L.S.Vygotskiy [6; 79-b.] o'zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida san'at va ijodiy faoliyatni shaxsning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim omil sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, musiqiy faoliyat o'quvchilarning emotsional-intellektual rivojlanishida yetakchi vositalardan biridir.

B.M.Teplov [7; 310-311-b.] musiqiy qobiliyatlarning psixologik asoslarini tadqiq etib, ularni ritmni his etish, musiqiy eshitish va emotsional sezgirlik kabi tarkibiy komponentlar orqali izohlaydi. Olim musiqiy qobiliyatlar tug'ma imkoniyatlar bilan bir qatorda, maqsadli ta'lim va mashg'ulotlar jarayonida samarali rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

O'zbekistonlik pedagog olimlar N.S.Saidahmedov [8; 49-b.], R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov [9; 528-b.], ilmiy ishlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va ijodiy faoliyatni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy tashabbuskorligini va estetik didini shakllantirishda muhim pedagogik mexanizm sifatida ko'rsatib berilgan.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda musiqiy qobiliyat shaxsning musiqani idrok etish, eshitish, his qilish, ijro etish va musiqiy obrazlarni yaratish imkoniyatlari majmui sifatida talqin etiladi. B.Teplov, L.Vygotskiy kabi olimlarning tadqiqotlarida musiqiy qobiliyatlar ritmni his etish, musiqiy eshituv, musiqiy xotira va emotsional sezgirlik bilan uzviy bog'liq ekanligi asoslab berilgan.

Bolaning musiqiy rivojlanishi nafaqat o'quv faoliyati jarayonida, balki maktabdan tashqari, ishlarda ham amalga oshiriladi. Qo'shimcha ta'lim muassasasi - bu ta'lim muassasasining bir turi bo'lib, uning asosiy maqsadi shaxsning bilim va ijodga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirish, qo'shimcha ta'lim dasturlari va xizmatlarini shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab amalga oshirishdir.

Qo'shimcha ta'lim muassasalarining maqsadi – yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'zlari tanlagan faoliyat sohasida o'zini-o'zi anglashi va ijodiy individualligini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishdir" [5; 104-b.].

Bolalar musiqa va san'at maktablari qo'shimcha ta'lim muassasalari sifatida o'quvchilarning ehtiyojlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, musiqa maktablari o'quvchilarga musiqa tilini tushunish, uning ifodaliligini his qilish ko'nikmasini shakllantirish orqali zarur bilim, ko'nikma, malakalar beradi. Musiqa san'atiga qiziqish, insonda did, musiqa va ijodiy qobiliyatlarni va badiiy tafakkurni rivojlantiradi. Jahon pedagogikasida erishilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida ta'lim oluvchining kasbiy kompetentligini mustahkamlash bilan birgalikda, uning mustaqil fikr yuritishi, erkin mushohada qilishi birlamchi omil bo'lib, bu borada badiiy tafakkur barcha omillarning poydevoridir [4; 256-b.].

San'at maktabida tarbiya va ta'limning asosiy maqsadi bolani keng ma'noda badiiy-estetik rivojlantirish, bilim va ko'nikmaga ega, badiiy-estetik faoliyat bilan yanada shug'ullanishga qodir bo'lgan san'at ixlosmandlarini tarbiyalashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'quvchilarga erta kasbiy yo'l-yo'riq berish vazifalarini bajarishga mo'ljallangan san'at maktabi keyinchalik kasbiy ta'lim olish va san'at sohasida ijtimoiylashuv qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarni samarali rivojlantirish va o'qitish uchun real sharoitlarni yaratishi kerak. O'quv jarayonining markazi bola bo'lib, maktabning vazifasi unga tanlangan o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun keng imkoniyatlarni taqdim etish va uning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishdir. O'quvchilar guruhlarining ustun xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, o'rganishga individual yondashish muammolarini hal qilishni ta'minlash har bir bolaning rivojlanish istiqbollari aniqroq aniqlash imkonini beradi va bu orqali ko'proq bolalarni musiqa va san'at ta'limi jarayoniga jalb qilish imkoniyatini beradi.

O'quvchilarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositalari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

rivojlanish ta'limi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim g'oyalarini jalb qilish;

munosabatlarning dialogik tabiati va badiiy va ijodiy jarayon mantiqiga mos keladigan o'qitish usullari va vositalaridan foydalanish;

o'quvchining ijodiy salohiyatini ochishga yordam beradigan ijodiy vaziyatni yaratish, o'quvchining musiqa maktabidagi kontsertlarga, darsdan tashqari mashg'ulotlarga va o'quv jarayoniga oddiy munosabatda bo'lishini oldini olish [3; 256-b.].

Darsdan tashqari ishlarni tashkil etish pedagogik va ijtimoiy-madaniy sohaning zamonaviy talablaridan orqada qolmaslik uchun musiqa va san'at maktablarida o'quvchilarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish shakllari va usullarini ishlab chiqish, ularni baholash mezonlarini ishlab chiqish zarurati kabi muammolarni hal etish zarur. Umuman olganda, bolalar musiqa maktablari o'qituvchilari sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish uchun yetarli darajada tayyor bo'lish va ilmiy asoslangan vositalar va usullarni izlash kerak.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning qobiliyatlarini chuqurroq rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu mashg'ulotlar musiqa to'garaklari, ansambl va xor mashqlari, sahna chiqishlari, musiqiy tanlovlar va ijodiy loyihalar ko'rinishida tashkil etiladi.

Nazariy jihatdan darsdan tashqari mashg'ulotlar quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

- ixtiyoriylik va qiziqishga tayanganlik;
- individuallashtirish va differensial yondashuv;
- ijodiy erkinlik va mustaqil faoliyatni qo'llab-quvvatlash;
- musiqiy-estetik muhit yaratish.

Mazkur tamoyillar o'quvchilarning musiqiy faolligini oshirib, ularning ichki imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosiga asosiy yondashuvlarni tahlil qilish;

bolalar musiqa maktabida o'quvchilarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish mezonlarini aniqlash;

bolalar musiqa maktabida o'qituvchi iqtidorli bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

o'quvchining ijodiy salohiyatini ochishga yordam beradigan ijodiy vaziyatni yaratish;

darsdan tashqari mashg'ulotlarida o'quvchilarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish [2; 256-b.].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlar ta'lim jarayonining uzviy davomi sifatida o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularning badiiy tafakkuri, emotsional sezgirligi va ijodiy mustaqilligini rivojlantiradi. Musiqiy faoliyatning turli shakllari xonandalik, cholg'u ijrochiligi, musiqani tinglash va tahlil qilish hamda improvizatsiya jarayonlari o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va namoyon etish uchun qulay sharoit yaratadi.

O'rganilgan ilmiy-nazariy manbalar va pedagogik yondashuvlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, musiqiy va ijodiy qobiliyatlar tug'ma imkoniyatlar bilan cheklanib qolmay, balki maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan ta'lim jarayonida samarali shakllanadi. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda yuqori natija beradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Darsdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni umumiy ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq holda, yagona pedagogik konsepsiya asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

2. Musiqa va san'at yo'nalishidagi to'garaklar faoliyatida ijodiy topshiriqlar, musiqiy improvizatsiya va loyiha asosida ta'lim elementlarini keng joriy etish tavsiya etiladi.

3. O'qituvchi va rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, xususan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha malaka oshirish mashg'ulotlarini kuchaytirish lozim.

4. O'quvchilarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini baholashda faqat nazariy bilimlarga emas, balki amaliy ijodiy faoliyat natijalariga asoslangan mezonlarni ishlab chiqish zarur.

5. Kelgusidagi tadqiqotlarda darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning diagnostik usullari hamda monitoring tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish ta'lim sifatini oshirish, estetik madaniyatni rivojlantirish va barkamol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Sharq taronalari" o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. 27 Avgust 2019 yil.
2. Salimova D.I. O'quvchilarning musiqiy ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda mustaqil fikrlashning ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. April 2022. – 298 b.
3. Крыхтина С.Ю. «Формирование музыкально-творческих способностей учащихся в условиях внеклассной работы учреждения дополнительного образования: на примере Детской музыкальной школы»: Автореф.дис.канд.психолог.наук. Москва, 2009 –302 с.
4. Ergashev O.T. Talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy zarurati va pedagogik asoslari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarining dolzarb muammolari. -2023. -№ 3 (3). ISSN: 2181-1342 (Online). 255-260 betlar. <https://scienceproblems.uz>.
5. Чернова Н.А. Творческая деятельность как средство развития личности учащегося: Учебное пособие.- Кемерово: Кузбассвузиздат 1995. –104с.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
7. Теплов Б.М. О культуре научного исследования // Избранные труды. М.: Педагогика, 1985. Т. 2. С. 310-337.
8. Саидахмедов Н.С. «Педагогик махорат ва рахбарлик». – Тошкент: 2018. – 285 b.
9. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.